

TASVIRIY SAN'ATNING ASOSI BO'LMISSH „QALAMTASVIR TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR”

*Farg'ona davlat universiteti Sa'natshunoslik fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi yo'nalishi 22.29-guruh talabasi
Saitahmatova Zilola*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'atning asosi bo'l mish qalamtasvir to'g'risida bo'lib uning rivojlanish tarixi fan sifatida darsga kiritilishi maqsad vazifalari va fan nazariyalari keng yoritilga. Inson hayotini ranglarsiz tasavvur eta olmaydi. Qalamtasvir esa ana shu ranglarning qalamdag'i aksidir.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, qalamtasvir, ijodiy faoliyat, qalam, rassom, qalam turlari

KIRISH

Tasviriy san'at yosh avlodni tarbiyalashda va uning ongini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu fan o'zining keng imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Tasviriy san'atning asosi bo'l mish qalamtasvir tasviriy san'atning bir bo'g'inidir. Bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchars bog'liqdir. Ya'ni tasviriy san'at insonning ijodiy faoliyatini, uning ruhiy kechinmalarini, harakterini ochib berishga yordam beradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Qalamtasvir va rangtasvir esa bu borliqni ranglar orqali ko'rishga va tasavvur etishga o'rgatadi.

SAN'AT KELIB CHIQISHI

Aslida tasviriy san'at juda qadim zamonlarda mehnat jarayoninig taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan. Bu jarayonda inson tafakkuri rivojlanadi, go'zallik va muhabbat tushunchalari shakllanadi hamda ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqadi. Bu esa fan va san'at rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. San'at va san'atkorlar shu asnosda paydo bo'ladi. Bora-bora tasviriy san'at inson faoliyatining ma'lum bir sohasiga aylanib davrning estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylanadi.

XIII-XVI asrlarda tasviriy san'atga qarashlar kuchayib san'atni qonun qoidalar asosida o'rganishga qiziqish ortadi. XVII-XIX asrlarda esa tasviriy san'at uslub jihatdan kengayib san'at olamida san'at turlari va janrlari ko'payadi. Shu tariqa turli yo'nalishlarga bo'linib ketadi. XX asrda san'at murakkablashib yanada rivojlanadi. Maktab, litsey, kollejlarda tasviriy san'at fan sifatida darsliklarga kiritiladi. Shuningdek, tasviriy san'atga ixtisoslashgan maktablar ochiladi. Bu esa tasviriy san'atning gullab-yashnab rivoj topishiga turtki bo'ldi.

Qalamtasvir to'g'risida fan nazariyalari maqsadi vazifalari .

Qalamtasvir tasviri san'atning asosidir. Bunda eng asosiyo o'rinni qalam egallaydi. Qalamtasvir ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek qalamtasvirda asosiyo rol bu qalamdir. Hozirgi kunda oddiy qalamning juda ko'p turlari mavjud. O'rtacha yumdhoq qalamlardan tortib juda qattiq qalam turlari mavjud. „T“, „2T“, „N“, „2N“, „M“, „2M“, „3M“ yoki V, T, 2T, M, 2M, N, 2N, NV, V, 2V va boshqalar. Tarixga nazar tashlasak, ibtidoiy davrda odamlar g'orlarga, tog'u toshlarga turli tasvirlar chizganini ko'rish mumkin. Ular biron-bir uchli qattiqroq narsa bilan g'or devorlarini tirnab, turli shakllarni yasashgan. Taraqqiyot tufayli rasm chizish asbob-uskunalari ham takomillashib bordi. Oddiy qora qalam ham shular jumlasidan. XVI asrda Angliyada grafit konidan topilgan tayoqchalarda rasm chizib ko'rishgan, shunda ular qog'oz yuzasida juda nafis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'lgan. Oddiy qora qalam XVII asrning oxirida fransuz olimi N. Kante tomonidan kashf etilgan.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo Da Vinci „Rangtasvir qonunlari" nomli asarida ta'kidlagandek, yoshlar o'zlarini ilm fan, tasviri san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni bilmoqlari lozim " deya ta'kidlagan . Rassom tasviri san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi.

Qalamtasvir mashg'ulotlari tasviri san'atni o'rganayotgan o'quvchi, oqituvchiga quyidagi eng asosiyo qonunlarni o'rgatishni mqsad qilib qo'yadi:

1Tasviri san'atda kompozitsiya asoslari.

2Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.

3Buyumlarning o'zaro nisbatlari.

4Tasviri san'atda perspective qonunlari .

5Shakllarda yorug' va soya qonuniyatları.

6Tasvirni metodik ketma-ketlikda analiz va sintez qilib to'g'ri bajarish.

Tasviri san'at borliqdagi voqeal-hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushbu narsa va buyumlarning ichki mohiyatini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi : „Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish avvalo, buyumlarning „ichki" dunyosini, so grafit „, tashqarisini" o'rganish natijasida amalga oshiriladi. Buyumning haqiqiy go'zalligini , avvalo

tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida idrok etamiz.
Tasvirlash - kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir.

XULOSA

Insoniyat har doim san'at asarlarini qadrlagan . San'at asarlarini yaratishda masuliyat hissi har bir rassomga kuch beradi , xalq ishonchi bu kuchni o'n barobar oshiradi . Bu ishonch rassomga durdona asarlar yaratishda yordam beradi. Millar g'ururi va hayotini tasvirlovchi jamiyat faxri bo'ladi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/sanat/Tasviriy san'at o'qitish metodikasi \(S.Abdirasilov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/sanat/Tasviriy_san'at_o'qitish_metodikasi_(S.Abdirasilov).pdf)
- 2.[http://e-library.namdu./Tasviriy san'at/Qalamtsaviy.B.Boymetov 2006.pdf](http://e-library.namdu./Tasviriy_san'at/Qalamtsaviy.B.Boymetov_2006.pdf)
- 3.[https://library.samdu.uz/files/_TASVIRIY SAN'AT.pdf](https://library.samdu.uz/files/_TASVIRIY_SAN'AT.pdf)

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA
QARATILGAN DAVLAT SIYOSATINI YURITISH MASALALARI**

Mirmaxmudova Azizaxon Muhammadxakim qizi
Toshkent shahridagi Adju universiteti psixolog

Annostatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan ta'lism imkoniyatlar va ular qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'lism sohasida amaliyotga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar, shunindek jamiyat hayotida xotin-qizlarning nufuzi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *islohat, qo'llab-quvvatlash, kasbiy ko'nikma, davlat granti, oliy ta'lism, parametr, kengaytirish, qamrab olish, kadr, imkoniyat.*

Bugun O'zbekiston ayollar har bir jabhada o'z o'rniiga ega bo'lib borayotganini barchamiz bevosita amalda ko'rib turimiz. Xotin –qizlarni, ijtimoiy -siyosiy faoligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin –qizlarni ta'lism va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotinqizlarni aniqlash va ularni qobiliyatini to'g'ri shakillantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Birgina ta'lism tizimda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyat misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda ayollar rolini oshirish, ehtiyojmand oilalar qizlari uchun,, ijtimoiy lift "tamoyili asosida xotin-qizlarni oliy ta'lism bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida alohida davlat grant o'rinnari ikki barobarga oshirilmoqda. Oliy ta'lism mussasalarilariga o'qish qabulqilish davlat buyurtmasi parametirlarini shakillantirish bo'yicha kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlarini, quota.idm.uz "elektron portalı orqali aniqlanmoqda. Davlat buyurtmasi parametirlari doirasida yoshlarni oliy ta'limga qamrab olishni kengaytirish, shuningdek xotin-qizlar uchun esa alohida davlat granti e'lon qilinmoqda o'tgan 2020-2021 yiliga nisbatan 2022 yilda xotin-qizlar uchun qabul kvotasini 25 foizga oshirish rejalashtirmoqda. Xotin-qizlarni ijtimoiy – siyosiy faoligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, xotin – qizlarning ta'lism va kasbiy ko'nikmaqlar olish, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatini to'g'ri yo'naltirish, hududlarda ayniqsa, qishloqlarda xotin – qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, xotin – qizlar o'rtasida sog'lom turmish tarzini ta'minlash borasida Prezidentimiz Shavkat Miziyyoyev tashabbuslari bilan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa bugungi xotin – qizlarga qanchalik e'tibor berilayotganing yorqin namunasi hisoblanadi.